
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Kholmuradova L.E., Axmadova G.K.	Games for developing communicative skills in primary school	507
Axmadaliyeva X.A.	The effectiveness of developing life skills among grade 10–11 students through the CLIL approach	517
Abdurasulova N.A.	Fostering professional readiness among tourism students through contextualized English language learning	527
Ismailov Y.N.	Intangible cultural heritage as an object of didactic authenticity in German language teaching (a comparison of Germany and Uzbekistan)	535
Djurayeva M.Sh.	Project tasks based on comparative analysis of culturally situated communication in English speaking classes	543
Rakmankulova N.Kh.	Pedagogical conditions for developing the cognitive competence of future teachers through facilitative interaction	553
TRANSLATION		**564**
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	Translation strategies for culture-bound units in Chinese spring festival greetings into Uzbek	565
Uzakova L.A.	Translation issues of wedding-related phraseological units and the degree of equivalence	573
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	National and cultural concepts in Chinese mid-autumn festival (中秋节) greetings and their translation into Uzbek	582
Akhmedova A.N., Mirzayeva M.B.	Contextual semantics of literary portrait units and their functional correspondence in translation	590
Akhmedova A.N., Batirova Kh.E.	Grammatical and Syntactic Transformations in the Translation of Short News Items of Higher Education Institutions between Uzbek and English	601
HISTORY		**609**
Namazov A.T.	Uzbekistan 1930–1939: the period of the Latin alphabet	610
CONTENTS		**615**

The effectiveness of developing life skills among grade 10–11 students through the CLIL approach

Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna
xosiyatposhshoaxmadaliyeva@gmail.com
PhD, Associate Professor,
Banking and finance academy of the Republic of Uzbekistan

Annotation *This article examines the pedagogical and methodological potential of Content and Language Integrated Learning (CLIL) for developing life skills among Grade 10–11 students in secondary schools. Particular attention is paid to fostering critical thinking, problem-solving, effective communication, collaboration, independent decision-making, and digital literacy through the integration of subject content and foreign language learning. The study explores the four core components of CLIL – content, communication, cognition, and culture – and their relationship with practical life competencies. Examples of integrated classroom activities addressing environmental challenges, financial literacy, healthy lifestyles, and career guidance are proposed. The article also outlines criteria for assessing students' language development and practical performance. The theoretical analysis suggests that CLIL-based instruction may support the application of knowledge in real-life situations, collaborative learning, and responsible decision-making. The proposed recommendations emphasise interdisciplinary integration, communicative engagement, and preparation for further education and employment. Teacher preparedness, appropriate learning materials, differentiated support, and reflective assessment are identified as essential pedagogical conditions for effective implementation.*

Keywords *CLIL approach, life skills, interdisciplinary integration, critical thinking, communicative competence, problem-based learning, independent decision-making, upper secondary school students*

10–11-sinf o‘quvchilarining hayotiy ko‘nikmalarini CLIL yondashuvi asosida rivojlantirish samaradorligi

Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna
xosiyatposhshoaxmadaliyeva@gmail.com
PhD, Dotsent,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 10–11-sinf o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni Content and Language Integrated Learning (CLIL) yondashuvi asosida rivojlantirishning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fan mazmuni va xorijiy tilni integratsiyalash orqali tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, samarali muloqot, hamkorlik, mustaqil qaror qabul qilish va raqamli savodxonlikni shakllantirish masalalari yoritiladi. CLIL yondashuvining mazmun, kommunikatsiya, kognitiv faoliyat va madaniyat komponentlari hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Maqolada ekologik muammolar, moliyaviy savodxonlik, sog‘lom turmush tarzi va kasbiy yo‘naltirish*

mavzulariga asoslangan integratsiyalashgan topshiriqlar namunalari taklif etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning til kompetensiyasi va amaliy faoliyatini birgalikda baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Tahlillar CLIL asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash, jamoada ishlash va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan metodik tavsiyalar yuqori sinflarda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish va ularni kelajakdagi ta’lim hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, o‘quv materiallarining mosligi va reflektiv baholash muhim pedagogik shartlar sifatida belgilanadi.

Kalit so‘zlar *CLIL yondashuvi, hayotiy ko‘nikmalar, fanlararo integratsiya, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, muammoli ta’lim, mustaqil qaror qabul qilish, yuqori sinf o‘quvchilari*

Эффективность развития жизненных навыков учащихся 10–11 классов на основе подхода CLIL

Ахмадалиева Хосиятпошшо Абдухаётовна
xosiyatposhshoaxmadaliyeva@gmail.com
PhD, Доцент,
Академия банковского дела и финансов Республики Узбекистан

Аннотация *В статье рассматриваются педагогические и методические возможности развития жизненных навыков учащихся 10–11 классов общеобразовательных школ на основе предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL). Особое внимание уделяется формированию критического мышления, навыков решения проблем, эффективного общения, сотрудничества, самостоятельного принятия решений и цифровой грамотности посредством интеграции предметного содержания и иностранного языка. Анализируются четыре основных компонента подхода CLIL: содержание, коммуникация, познание и культура, а также их взаимосвязь с развитием жизненных компетенций. Предлагаются примеры интегрированных заданий по экологическим проблемам, финансовой грамотности, здоровому образу жизни и профессиональной ориентации. Рассматриваются критерии комплексного оценивания языковых достижений и практической деятельности учащихся. Теоретический анализ позволяет предположить, что применение CLIL способствует переносу знаний в реальные жизненные ситуации, развитию командной работы и ответственному принятию решений. Представленные методические рекомендации направлены на усиление межпредметной интеграции, повышение коммуникативной активности и подготовку старшеклассников к дальнейшему образованию и профессиональной деятельности. В качестве необходимых педагогических условий выделяются методическая подготовка учителя, доступность учебных материалов, дифференцированная поддержка учащихся и систематическое рефлексивное оценивание результатов обучения.*

Ключевые слова *Подход CLIL, жизненные навыки, межпредметная интеграция, критическое мышление, коммуникативная компетенция, проблемное обучение, самостоятельное принятие решений, старшеклассники*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nazariy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, ularni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning yakuniy bosqichi bo'lgan 10–11-sinflarda o'quvchilarni mustaqil hayotga, oliy ta'limga va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu bosqichda tanqidiy fikrlash, samarali muloqot, hamkorlik, muammolarni hal qilish, mas'uliyatli qaror qabul qilish va axborotdan ongli foydalanish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim mazmunining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Hayotiy ko'nikmalar shaxsning turli ijtimoiy, akademik va amaliy vaziyatlarga moslashishi, mavjud muammolarni baholashi hamda oqilona yechimlar ishlab chiqishiga yordam beradigan o'zaro bog'liq kompetensiyalar majmuasidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hayotiy ko'nikmalarni kundalik hayot talablariga samarali javob berishga xizmat qiladigan moslashuvchan va ijobiy xulq-atvor qobiliyatlari sifatida tavsiflaydi (World Health Organization, 1994). Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida bilimlarni tayyor shaklda uzatishdan o'quvchining faol ishtiroki va mustaqil faoliyatiga asoslangan o'qitishga o'tishni taqozo etadi.

Bunday vazifalarni amalga oshirishda Content and Language Integrated Learning (CLIL), ya'ni fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish yondashuvi muhim metodik imkoniyatlarga ega. CLIL muayyan fan mazmunini xorijiy til vositasida o'zlashtirishni nazarda tutadi va bunda fan bilimlari bilan til kompetensiyasini birgalikda rivojlantirish maqsad qilinadi. Coyle, Hood va Marsh (2010) tomonidan asoslangan 4C modeli mazmun, kommunikatsiya, kognitiv faoliyat va madaniyat komponentlarining o'zaro aloqadorligiga tayanadi.

CLIL yondashuvi asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar ingliz tilini faqat grammatik qoidalar va leksik birliklar tizimi sifatida emas, balki real muammolarni muhokama qilish, dalillarni tahlil etish va qarorlarni asoslash vositasi sifatida qo'llaydilar. Masalan, ekologiya mavzusida chiqindilarni kamaytirish loyihasini ishlab chiqish yoki iqtisodiyotga oid mashg'ulotda shaxsiy budjetni rejalashtirish o'quvchilarning predmetga oid bilimlari bilan birga kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini ham faollashtiradi.

Shu bilan birga, CLIL yondashuvining samaradorligi o'quvchilarning til darajasi, fan bo'yicha tayyorgarligi, topshiriqlarning murakkabligi va o'qituvchining metodik kompetensiyasiga bog'liq. Til va mazmunning muvozanatsiz tashkil etilishi o'quvchilarda ortiqcha kognitiv yuklama yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli o'quv materiallarini bosqichma-bosqich murakkablashtirish, vizual tayanchlardan foydalanish va differensial yondashuvni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

CLIL yondashuvining ilmiy-nazariy asoslari xorijiy tilni o'qitish metodikasi, kognitiv pedagogika, konstruktivistik ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv doirasida shakllangan. Mazkur yondashuvning asosiy xususiyati fan mazmuni va til o'rganish jarayonining o'zaro integratsiyasini ta'minlashdan iborat bo'lib, unda til bilimlarni o'zlashtirish va kommunikativ faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi. CLILning

nazariy asoslarini ishlab chiqishda D. Marsh, D. Coyle, P. Hood, O. Meyer va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega.

Coyle et al. (2010) CLILni fan mazmuni va tilni birgalikda o'zlashtirishga yo'naltirilgan ikki maqsadli pedagogik yondashuv sifatida izohlaydilar. Mualliflar tomonidan tavsiya etilgan 4C modeli Content, Communication, Cognition va Culture komponentlarini o'z ichiga oladi. Mazmun komponenti fan bo'yicha bilimlarni egallashni, kommunikatsiya til orqali fikr almashishni, kognitiv faoliyat tahlil qilish va muammolarni hal etishni, madaniyat esa turli qarashlarni anglash va hurmat qilishni nazarda tutadi. Ushbu komponentlarning integratsiyasi o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni kompleks rivojlantirish uchun nazariy asos yaratadi.

Mehisto et al. (2008) CLIL asosida ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning faol ishtiroki, mazmunli kommunikatsiya va o'quv topshiriqlarining hayotiy vaziyatlarga yaqinligi muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, samarali CLIL mashg'ulotlarida o'quvchilar fan mazmunini o'zlashtirish bilan birga, o'z fikrlarini xorijiy tilda ifodalash, hamkorlik qilish va mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur qarash yuqori sinf o'quvchilarini kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bevosita bog'liq.

Meyer (2010) CLIL mashg'ulotlarini loyihalashda kognitiv murakkablik, til vositalari va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotchi CLIL Pyramid modelini taklif etib, o'quv jarayonida mazmunni tanlash, multimodal materiallardan foydalanish, kommunikativ faoliyatni tashkil etish va yakuniy mahsulot yaratish o'rtasidagi aloqadorlikni asoslaydi. Bu model hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihaviy va muammoli topshiriqlarni ishlab chiqishda metodik ahamiyat kasb etadi.

Dalton-Puffer (2007) CLIL sinflaridagi nutqiy faoliyatni o'rganib, fan mazmunini xorijiy tilda muhokama qilish o'quvchilarning akademik diskursda ishtirok etishi uchun muhim imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Bunda savol-javob, tushuntirish, dalillash va muhokama kabi nutqiy faoliyat turlari alohida o'rin egallaydi. Mazkur xulosalar CLILning faqat til o'rganishga emas, balki fikrni mantiqiy ifodalash va kommunikativ muammolarni hal qilishga ham xizmat qilishi mumkinligini asoslaydi.

Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari World Health Organization (1994) tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda ham yoritilgan. Ushbu manbada qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, samarali muloqot, shaxslararo munosabatlar, o'zini anglash, empatiya hamda hissiyotlarni boshqarish muhim hayotiy ko'nikmalar sifatida tavsiflanadi. Mazkur tasnif CLIL darslarining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilashda qo'llanishi mumkin.

Vygotsky (1978)ning sotsiokultural ta'lim nazariyasiga ko'ra, o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy o'zaro ta'sir, hamkorlik va pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshadi. Bu nazariya CLIL mashg'ulotlarida juftlik va guruhlarda ishlash, tengdoshlar bilan bilim almashish hamda murakkab topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarishning pedagogik mohiyatini tushuntirishga yordam beradi.

Anderson va Krathwohl (2001) tomonidan takomillashtirilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasida eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish kabi kognitiv jarayonlar farqlanadi. Ushbu tasnif CLIL topshiriqlarini oddiy axborotni qayta bayon qilishdan mustaqil loyiha yaratishgacha murakkablashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalari bilan bog'liq.

OECD (2019)ning Learning Compass 2030 konsepsiyasida o'quvchi mustaqilligi, bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarning uyg'un rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Mazkur yondashuv CLILning fanlararo va faoliyatga

yo‘naltirilgan xususiyatlari bilan metodik jihatdan uyg‘unlashadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili CLIL yondashuvi o‘quvchilarning lingvistik, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarini integratsiyalash uchun nazariy asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq uning aynan 10–11-sinf o‘quvchilarining hayotiy ko‘nikmalariga ta’sirini baholashda alohida empirik ko‘rsatkichlar, yosh xususiyatlariga mos topshiriqlar va kompleks baholash mezonlaridan foydalanish talab etiladi.

CLIL yondashuvi va hayotiy ko‘nikmalar o‘rtasidagi integrativ bog‘liqlik

CLIL yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish uning tarkibiy komponentlari bilan hayotiy ko‘nikmalar o‘rtasida funksional bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bunda fan mazmuni o‘quvchilar uchun muammoli vaziyatni yaratadi, xorijiy til esa ushbu vaziyatni tahlil qilish, muhokama etish va yechimlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

CLIL komponenti	Rivojlantiriladigan hayotiy ko‘nikma	Kutiladigan o‘quv natijasi
Content (mazmun)	Axborotni tahlil qilish, moliyaviy va ekologik savodxonlik	Fan bilimlarini real vaziyatda qo‘llash
Communication (kommunikatsiya)	Muloqot, hamkorlik, muzokara olib boorish	Ingliz tilida fikrni asoslash va tushuntirish
Cognition (kognitiv faoliyat)	Tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish	Muqobil yechimlarni baholash
Culture (madaniyat)	Empatiya, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy mas’uliyat	Turli qarashlarni hurmat qilish

1-jadval. *CLILning 4C modeli va hayotiy ko‘nikmalar integratsiyasi*

Jadvaldan ko‘rinadiki, CLIL komponentlari hayotiy ko‘nikmalarning alohida elementlarini emas, balki ularning o‘zaro aloqador tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin.

Masalan, ekologik muammoga bag‘ishlangan CLIL mashg‘ulotida o‘quvchi dastlab muammoning ilmiy sabablarini o‘rganadi, keyinchalik ingliz tilida ma’lumotlarni muhokama qiladi, muqobil yechimlarni taqqoslaydi va yakunda guruh bilan amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu jarayonda predmetga oid bilim, til kompetensiyasi va hayotiy ko‘nikmalar yagona faoliyat doirasida namoyon bo‘ladi.

Tahlil asosida CLIL mashg‘ulotlarining maqsadga muvofiq tashkil etilishi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar belgilandi.


Birinchidan, o‘quv materiallari real hayotiy muammolarga asoslanishi zarur. O‘quvchilar uchun tanlangan mavzular ularning shaxsiy tajribasi, qiziqishlari va kelajakdagi ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, fan va til maqsadlarining uyg‘unligi ta’minlanishi lozim. Har bir mashg‘ulotda o‘quvchilar qanday predmet bilimini egallashi va ushbu bilimni qaysi til vositalari orqali ifodalashi aniq belgilanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, o‘quvchilarning mustaqil faoliyati va hamkorlikdagi ishlari uchun imkoniyat yaratilishi kerak. Muammoli topshiriqlar, loyiha ishlari, munozaralar va vaziyatli mashqlar o‘quvchilarni faol qaror qabul qilishga undaydi.

To‘rtinchidan, differensial va bosqichli pedagogik yordam ko‘rsatilishi muhim. Ingliz tilini turli darajada egallagan o‘quvchilarga vizual materiallar, tayanch iboralar, namunaviy dialoglar va terminologik lug‘atlar taqdim etilishi mumkin.

Beshinchidan, baholash faqat til xatolarini aniqlashga emas, balki o‘quvchining muammoni tushunishi, yechim ishlab chiqishi, hamkorlik qilishi va o‘z faoliyatini baholashiga ham qaratilishi kerak.



1-rasm. *CLIL asosida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodik modeli*

CLIL asosida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning taklif etilayotgan pedagogik modeli.

Modelda o‘quvchining faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyiliga amal qilinadi. Dastlab o‘quvchi muammoni anglaydi va zarur ma’lumotlarni o‘zlashtiradi. Keyingi bosqichda olingan bilimlarni tahlil qilib, muloqot va hamkorlik orqali amaliy yechim ishlab chiqadi. Yakuniy bosqichda esa o‘z faoliyatini baholab, kelgusida takomillashtirilishi zarur bo‘lgan jihatlarni aniqlaydi.

Topshiriqlar:

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga oid: “My Monthly Budget”

Mazkur CLIL mashg‘ulotining maqsadi o‘quvchilarda shaxsiy budjetni rejalashtirish, xarajatlarni ustuvorlik asosida taqsimlash va moliyaviy qarorlarni asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O‘qituvchi o‘quvchilarga shartli ravishda 1 000 000 so‘mlik oylik budjet taqdim etadi. O‘quvchilar ushbu mablag‘ni transport, ovqatlanish, ta’lim, shaxsiy ehtiyojlar va jamg‘arma o‘rtasida taqsimlashlari kerak.

Xarajat turi	Ajratilgan mablag‘
Transport	150 000 so‘m
Ovqatlanish	300 000 so‘m
Ta’lim	200 000 so‘m
Shaxsiy ehtiyojlar	150 000 so‘m
Jamg‘arma	200 000 so‘m

2-jadval. *Shaxsiy budjetni rejalashtirish namunasi*

O‘quvchilar quyidagi savollar asosida ingliz tilida munozara olib boradilar:

- Why is saving money important for young people?
- Which expenses are essential and which are optional?
- How would you change your budget in an emergency?
- What are the consequences of spending more than you earn?

Mashg‘ulot yakunida har bir guruh o‘z budjetini taqdim etadi va moliyaviy qarorlarini dalillar asosida himoya qiladi.

Ushbu topshiriqning mazmuniy maqsadi moliyaviy rejalashtirish tamoyillarini tushunish bo‘lsa, til maqsadi xarajatlarni taqqoslash, sabablarni tushuntirish va tavsiyalar berishga oid inglizcha nutqiy birliklardan foydalanishdir.

Ekologik mas‘uliyatni shakllantirishga oid: “Save Our Environment”

Mashg‘ulotning asosiy muammoli savoli: How can we reduce plastic waste in our school?

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, maktabda plastik chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha amaliy loyiha ishlab chiqadilar. Dastlab plastik chiqindilarning ekologik oqibatlari haqida ingliz tilidagi qisqa matnlar va infografikalarni o‘rganadilar.

Keyinchalik guruhlar muammoning sabablarini aniqlaydi, muqobil yechimlarni taqqoslaydi va eng maqbul choralarni tanlaydi.

Namuna: Our Green School Action Plan

We suggest placing separate recycling bins in classrooms, reducing single-use plastic bottles, and organising environmental awareness campaigns. These activities can help students become more responsible and protect the environment.

Mazkur faoliyat davomida o‘quvchilar ekologik bilimlarni amaliy muammoga tatbiq etadilar, o‘z fikrlarini ingliz tilida asoslaydilar va jamoaviy qaror qabul qiladilar.

Baholashda ekologik yechimlarning asoslanganligi, takliflarning amalga oshirish imkoniyati, guruh a’zolarining ishtiroki va ingliz tilidagi taqdimot sifati hisobga olinadi.

Sog‘lom turmush tarziga oid: “Healthy Choices, Healthy Future”

Mazkur mashg‘ulot o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga oid axborotni tanqidiy baholash, shaxsiy ehtiyojlarni anglash va kundalik odatlar bo‘yicha asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

O‘quvchilarga uyqu, ovqatlanish, jismoniy faollik va ekran qarshisida o‘tkaziladigan vaqt haqidagi umumiy tavsiyalar taqdim etiladi. Ular turli manbalardagi ma’lumotlarni solishtirib, ishonchli va shubhali tavsiyalarni ajratadilar.

Asosiy savollar:

1. What habits help teenagers stay healthy?
2. How can students balance studying, physical activity, and rest?
3. Why should we check health information before following it?

Guruhlar “A Healthy Week for Teenagers” mavzusida namunaviy haftalik reja ishlab chiqadilar. Rejada o‘qish, dam olish, jismoniy faollik va shaxsiy rivojlanish uchun vaqt ajratiladi.

Bu topshiriq tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, o‘zini boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirishga qaratilgan.

Kasbiy yo‘naltirishga bog‘langan: “My Future Career”

11-sinf o‘quvchilarini kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda CLIL asosidagi kasbiy yo‘naltirish topshiriqlari alohida ahamiyatga ega.

O‘quvchilar tanlagan kasblari bo‘yicha ma’lumot to‘playdilar, zarur bilim va kompetensiyalarni aniqlaydilar, ta’lim yo‘nalishlarini solishtiradilar hamda ingliz tilida shaxsiy kasbiy rivojlanish rejasini taqdim etadilar.

Topshiriqning yakuniy mahsuloti My Career Development Plan nomli qisqa taqdimot hisoblanadi. Unda o‘quvchi kelajakdagi kasbi, ushbu kasb uchun zarur ko‘nikmalar, ta’lim imkoniyatlari va shaxsiy rivojlanish bosqichlarini yoritadi.

Bu faoliyat mustaqil izlanish, raqamli savodxonlik, o‘zini anglash, maqsad qo‘yish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Hayotiy ko‘nikmalarni baholash mezonlari

CLIL mashg‘ulotlarining natijadorligini baholashda til kompetensiyasi va hayotiy ko‘nikmalarni birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq.

Mezon	Baholash indikatori	Ball
Tanqidiy fikrlash	Ma’lumotlarni tahlil qiladi, dalillarni taqqoslaydi	20
Muammolarni hal qilish	Amaliy va asoslangan yechim taklif etadi	20
Kommunikativ kompetensiya	Ingliz tilida fikrini tushunarli bayon qiladi	20
Hamkorlik	Guruh faoliyatida faol ishtirok etadi	20
Qaror qabul qilish va refleksiya	Tanlovini asoslaydi, natijani baholaydi	20
Jami		100

3-jadval. *Hayotiy ko‘nikmalarni baholashning taklif etilayotgan mezonlari*

Har bir mezon bo‘yicha o‘quvchilarning rivojlanishini quyidagi darajalarda tavsiflash mumkin:

Yuqori daraja: o‘quvchi muammoni mustaqil tahlil qiladi, bir nechta yechimni solishtiradi, qarorini dalillar bilan asoslaydi va ingliz tilida faol muloqot qiladi.

O‘rta daraja: o‘quvchi muammoni tushunadi, o‘qituvchi yoki tengdoshlari ko‘magida yechim ishlab chiqadi va asosiy fikrlarini ingliz tilida ifodalay oladi.

Boshlang‘ich daraja: o‘quvchi muammoni tushunishda, axborotni tahlil qilishda va fikrini ingliz tilida ifodalashda muntazam yordamga ehtiyoj sezadi.

Mazkur mezonlar mualliflik metodik taklifi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, standartlashtirilgan va validatsiyadan o‘tgan baholash vositasi hisoblanmaydi.

CLIL yondashuvining samaradorligini aniqlash imkoniyatlari

CLIL yondashuvining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash uchun nazariy tahlildan tashqari pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish zarur.

Bunda 10–11-sinf o‘quvchilaridan tashkil topgan tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy ko‘rsatkichlarini taqqoslash mumkin. Tajriba guruhida CLIL asosidagi integratsiyalashgan topshiriqlar, nazorat guruhida esa amaldagi o‘qitish usullari qo‘llanadi.

Ko‘rsatkich	O‘lchash vositasi
Tanqidiy fikrlash	Muammoli vaziyat tahlili
Muammolarni hal qilish	Amaliy keys va loyiha
Kommunikativ kompetensiya	Og‘zaki taqdimot va munozara
Hamkorlik	Kuzatuv varaqasi va tengdoshlar bahosi
Qaror qabul qilish	Vaziyatli topshiriq
Refleksiv kompetensiya	Reflektiv kundalik va o‘zini baholash

4-jadval. *Samaradorlikni aniqlash uchun tavsiya etiladigan tadqiqot ko‘rsatkichlari*

Tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi, ingliz tili darajasi, fan bilimlari va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish muhim. Natijalarni tahlil qilishda faqat umumiy ball o‘zgarishi emas, balki har bir ko‘nikma bo‘yicha o‘sish dinamikasi ham o‘rganilishi lozim.

Shu bilan birga, samaradorlikni baholashda o‘quvchilarning motivatsiyasi, darsga jalb etilishi, mustaqil faoliyatga tayyorligi va olingan bilimlarni yangi vaziyatlarga ko‘chira olish qobiliyatini ham nazarda tutish zarur.

Maqolada tajriba-sinov o‘tkazilmaganligi sababli CLILning hayotiy ko‘nikmalarga ta’siri bo‘yicha statistik natijalar yoki isbotlangan samaradorlik foizlari keltirilmaydi.

O‘tkazilgan nazariy-metodik tahlillar CLIL yondashuvining hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari bir nechta pedagogik mexanizm orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Avvalo, mazmun va til integratsiyasi o‘quvchilarning fan bo‘yicha olgan bilimlarini kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashga undaydi. Natijada o‘quvchi faqat tayyor ma’lumotni takrorlash bilan cheklanmay, uni tahlil qilish, qayta ishlash va boshqa shaxslarga tushuntirish faoliyatida ishtirok etadi.

Ikkinchidan, CLIL mashg‘ulotlarida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan muammoli topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning kognitiv faolligini kuchaytirishi mumkin. Masalan, shaxsiy budjetni rejalashtirish yoki ekologik muammoni hal qilish jarayonida o‘quvchi turli muqobil variantlarni baholaydi, ehtimoliy oqibatlarni hisobga oladi va asoslangan qaror ishlab chiqadi. Bu jarayon Anderson va Krathwohl (2001) tavsiflagan yuqori darajadagi kognitiv faoliyat bilan bog‘liq.

Uchinchidan, CLILning kommunikativ komponenti o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik, tinglash, fikr bildirish va kelishuvga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Vygotsky (1978)ning sotsiokultural yondashuvi nuqtayi nazaridan bunday faoliyat bilimlarning ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

To‘rtinchidan, madaniyat komponenti o‘quvchilarda turli ijtimoiy qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, empatiya va madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, global ekologik muammolar, xalqaro iqtisodiy aloqalar va turli mamlakatlarning ta’lim tizimlarini taqqoslashga qaratilgan topshiriqlar ushbu kompetensiyalarni faollashtirishi mumkin.

Biroq CLILni barcha sharoitlarda bir xil samarali yondashuv sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli emas. Uning natijadorligi o‘quvchilarning til kompetensiyasi, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, dars materiallarining sifati va baholash tizimining to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Shu sababli CLIL asosida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda bosqichlilik, differensial yondashuv, mazmun va til muvozanati hamda reflektiv baholash tamoyillariga amal qilish zarur.

Mazkur tahlillar CLILni yuqori sinflarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning istiqbolli metodik vositasi sifatida ko‘rib chiqish mumkinligini ko‘rsatadi. Uning amaliy samaradorligini aniqlash esa maxsus tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov natijalariga asoslanishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, CLIL yondashuvi 10–11-sinf o‘quvchilarining hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda fan mazmuni va xorijiy til ta’limini integratsiyalash imkonini beruvchi istiqbolli pedagogik yondashuv hisoblanadi. Nazariy-metodik tahlillar mazkur yondashuv tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, samarali muloqot, hamkorlik va mas‘uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishi mumkinligini ko‘rsatdi. CLILning mazmun, kommunikatsiya, kognitiv faoliyat va madaniyat komponentlari o‘quvchilarning bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashiga yo‘naltirilgan integrativ tizimni tashkil etadi. Bunda muammoli topshiriqlar, loyihaviy faoliyat,

guruhli muhokamalar va reflektiv baholash muhim metodik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Yondashuvning natijadorligi o‘qituvchining metodik kompetensiyasi, o‘quv materiallarining mosligi va differensial pedagogik yordamga bog‘liq. Taklif etilgan model o‘quvchilarni mustaqil hayotga, keyingi ta’lim bosqichlariga va kasbiy faoliyatga tayyorlashda qo‘llanishi mumkin. Kelgusida uning samaradorligini tajriba-sinov asosida tekshirish, hayotiy ko‘nikmalarni baholash indikatorlarini takomillashtirish va turli fanlar doirasida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi va individual ehtiyojlarini hisobga olish barqaror natijalarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

References:

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. Longman.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge University Press.
3. Dalton-Puffer, C. (2007). *Discourse in content and language integrated learning (CLIL) classrooms*. John Benjamins Publishing Company. https://doi.org/10.1075/lllt.20
4. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). *Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education*. Macmillan Education.
5. Meyer, O. (2010). Towards quality-CLIL: Successful planning and teaching strategies. PULSO. *Revista de Educación*, (33), 11–29.
6. OECD. (2019). *OECD future of education and skills 2030: OECD Learning Compass 2030*. OECD. https://www.oecd.org/education/2030-project/
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes* (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Harvard University Press.
8. World Health Organization. (1994). *Life skills education for children and adolescents in schools: Introduction and guidelines to facilitate the development and implementation of life skills programmes* (WHO/MNH/PSF/93.7A.Rev.2). World Health Organization.